

2020- yilning yanvar-noyabr oylari uchun Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari



4 123,9
mlrd. soʻm

104,2 %

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida Surxondaryo viloyatida jami **4 123,9 mlrd. soʻmlik** qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **104,2 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʼyicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʼlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʼyicha boʼlinadi.

Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni,
2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda**

2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 469 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 172 taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **99,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **67,2 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **124,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **12,7 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **131,8 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **20,1 %**) o'sishidir.




Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.12.2019- yil	01.12.2020- yil	
Surxondaryo viloyatii	2 297	2 469	107,6
Termiz sh.	716	732	102,2
tumanlar:			
Oltinsoy	47	56	119,1
Angor	123	143	116,3
Bandixon	-	40	-
Boysun	135	145	107,4
Denov	138	145	105,1
Jarqo'rg'on	181	201	111,0
Qiziriq	136	141	103,7
Qumqo'rg'on	141	142	100,7
Muzrabot	103	111	107,8
Sariosiyo	124	137	110,5

Termiz	216	221	102,3
Uzun	51	50	98,0
Sherobod	77	83	107,8
Sho'rchi	109	122	111,9


**Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
01.12.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Termiz sh. (29,6 %), Termiz tumani (9,0 %) va Jarqo'rg'on (8,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **566,2** mld. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **88,9 %** ga bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko‘rsatkich darajasidan **2,4 %** punktga kamayib, **13,8 %** ni tashkil etdi.

**2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**




Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Sariosiyo tuman (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining **55,1 %** i yoki 2019- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan **83,8 %**), Qumqoʻrgʻon (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **23,8 %** i yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan **95,6 %**), va Termiz shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **2,7 %** i, yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan **87,4 %**) ga toʼgʼri keldi.




Qurilish ishlaringning umumi hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlaringni bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **63,1 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **0,2 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **105,2 %** ni tashkil etgan holda **2 603,8 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **23,1 %** ni tashkil etdi yoki **953,9 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **113,0 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **19,4** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4 104,5** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **0,5 %** va **99,5 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2020- yilning yanvar-noyabr oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Surxondaryo viloyati	4 123,9	19,4	0,5	4 104,5	95,5
Termiz sh.	1 095,5	19,4	100,0	1076,1	26,2
tumanlar:					
Oltinsoy	73,1	-	-	73,1	1,8
Angor	163,0	-	-	163,0	4,0
Bandixon	31,1	-	-	31,1	0,8
Boysun	285,8	-	-	285,8	7,0
Denov	298,5	-	-	298,5	7,3
Jarqo'rg'on	232,3	-	-	232,3	5,7
Qiziriq	128,1	-	-	128,1	3,1
Qumqo'rg'on	149,7	-	-	149,7	3,6
Muzrabot	172,9	-	-	172,9	4,2
Sariosiyo	739,0	-	-	739,0	18,0
Termiz	245,4	-	-	245,4	6,0
Uzun	116,7	-	-	116,7	2,8
Sherobod	272,6	-	-	272,6	6,6
Sho'rchi	120,2	-	-	120,2	2,9

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2020- yil yanvar-noyabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 75,6 % i yoki **3 119,2** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

75,6 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **517,4** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 91,4 % ni tashkil etdi

91,4 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 731,3** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 66,5 % ni tashkil etdi.

66,5 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **870,5** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 91,3 % ni tashkil etdi.

91,3 %




**2020- yilning yanvar-noyabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. soʻm)	Oʼsish surʼati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	4 123,9	104,2	100,0
Termiz sh.	1 095,5	111,0	26,6
tumanlar:			
Oltinsoy	73,1	101,1	1,8
Angor	163,0	100,6	4,0
Bandixon	31,1	105,7	0,8
Boysun	285,8	106,5	6,9
Denov	298,5	103,3	7,2
Jarqoʼrgʼon	232,3	100,7	5,6
Qiziriq	128,1	97,6	3,1
Qumqoʼrgʼon	149,7	100,1	3,6
Muzrabot	172,9	101,9	4,2
Sariosiyo	739,0	100,4	17,9
Termiz	245,4	101,0	6,0
Uzun	116,7	101,2	2,8
Sherobod	272,6	105,2	6,6
Shoʼrchi	120,2	104,0	2,9

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarinining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **0,1 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,1 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,6 %** punktga kamayib, **65,7 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2019- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,7 %** punktga ko'payib, **34,2 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **50,1 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **7,2 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **49,9 %** (**7,2 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.







Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **6,3 %** punktga kamaydi va **10,7 %** ni tashkil etdi. Qolgan **89,3 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **6,3 %** punktga ko'paydi.

ulushi, % da



2020- yilning yanvar-noyabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari





SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Tel.: 76 225-65-59